

MEDIA TA'LIM METODLARI ORQALI TALABALARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH MEXANIZMLARI

Baktibekova Janar Marat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Pedagogika fakulteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi

Raximova Xurzoda Kamulovna

ChDPU Psixologiya kafedrasining o'qituvchisi

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0002-9301-2141>

raximovaxurzoda2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20760080>

Annotatsiya. Ushbu maqolada media ta'lim metodlari asosida talabalarning kreativ fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy raqamli jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi, innovatsion fikrlaydigan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: media ta'lim, kreativ fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm, pedagogik texnologiyalar, raqamli pedagogika, interaktiv metodlar, muammoli ta'lim, refleksiya, innovatsion faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, talaba markazli ta'lim

KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga tub o'zgarishlar kiritib, yangi pedagogik yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida media makon kengayib, u ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, media ta'lim metodlari orqali talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda [2].

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida nafaqat bilim berish, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal eta olishi hamda yangi g'oyalarni yaratish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1]. Bu esa o'z navbatida kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etadi [3].

Media ta'lim metodlari talabalarning axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va yaratish jarayonlarini integratsiyalashgan holda tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, vizual, audiovizual va interaktiv vositalardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini faollashtirish, talabalarning motivatsiyasini oshirish hamda ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish mumkin. Shu bilan birga, media ta'lim muhitida talaba passiv bilim oluvchi emas, balki faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi [2].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy ishlanmalar mavjud bo'lsa-da, aynan media ta'lim metodlari asosida bu jarayonning samarali mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmagan [2]. Shu bois, media ta'lim vositalari yordamida kreativ fikrlashni shakllantirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Tadqiqotning maqsadi — media ta'lim metodlari orqali talabalarning kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat [3].

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- media ta'lim va kreativ fikrlash tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- kreativ fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash;
- media ta'lim metodlari asosida kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- tajriba-sinov ishlari orqali taklif etilgan yondashuvlarning samaradorligini baholash [3].

Tadqiqot obyekti — oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni [1].

Tadqiqot predmeti — media ta'lim metodlari asosida talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish jarayoni [2].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- media ta'lim metodlari asosida kreativ fikrlashni rivojlantirishning tizimli modeli ishlab chiqildi;

- talabalarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlarining pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi;

- interaktiv va raqamli ta'lim muhitida kreativ fikrlashni rivojlantirishning samarali usullari taklif etildi [3].

Tadqiqotning nazariy ahamiyati media ta'lim va kreativ fikrlash nazariyalarini boyitish, ularning o'zaro integratsiyasini ilmiy asoslash bilan belgilanadi [2]. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan metod va tavsiyalarni oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish imkoniyati bilan izohlanadi [3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Media ta'lim metodlari orqali talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, ushbu yo'nalishda bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kreativ fikrlash tushunchasi ilk bor ilmiy jihatdan Джой Пол Гилфорд tomonidan asoslab berilgan bo'lib, u fikrlashning divergent turi sifatida talqin etiladi. Olim kreativlikni muammoga bir nechta yechim topa olish qobiliyati sifatida izohlaydi.

Shuningdek, Элис Пол Торранс kreativ fikrlashni o'lchash va rivojlantirish masalalarini chuqur o'rganib, mashhur Torrance testlarini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, kreativlik quyidagi komponentlardan iborat:

- tezkorlik (fluency)
- moslashuvchanlik (flexibility)
- originallik (originality)
- ishlab chiqilganlik (elaboration)

Kreativ fikrlashning psixologik mohiyati, shuningdek, Лев Выготский tomonidan ham tadqiq etilgan bo'lib, u ijodiy faoliyatni ijtimoiy tajriba va madaniy omillar bilan bog'laydi. Uning fikricha, kreativlik insonning mavjud tajribani qayta tashkil etish va yangi kombinatsiyalar yaratish qobiliyatidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda media ta'lim metodlari asosida talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash, ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliy samaradorligini tekshirish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy qarashlari hamda innovatsion ta'lim konsepsiyalariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, konstruktivistik, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tizimli yondashuv doirasida talabalarning kreativ

fikrlashini rivojlantirish jarayoni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan komponentlar — maqsad, mazmun, metod, vosita va natijadan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv media ta‘lim metodlarining ta‘lim jarayonidagi o‘rnini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi.

Konstruktivistik yondashuv asosida talaba bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyekt sifatida talqin etildi. Shu nuqtai nazardan, media ta‘lim muhitida talabalarning mustaqil izlanishi, raqamli kontent yaratishi, muammoli vaziyatlarni hal etishi hamda refleksiv tahlil olib borishi muhim metodik asos sifatida qaraldi. Bu esa kreativ fikrlashning tabiiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tadqiqotda alohida ahamiyat kasb etib, u orqali talabalarda kreativ fikrlash bilan bir qatorda tanqidiy tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, kommunikativlik va innovatsion faoliyatga tayyorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish nazarda tutildi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa ta‘lim jarayonini amaliy faoliyat asosida tashkil etishni ko‘zda tutib, loyiha ishlari, кейс-метод, muammoli ta‘lim va interaktiv usullardan foydalanishni taqozo etdi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuasi qo‘llanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish, umumlashtirish, tizimlashtirish hamda modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali media ta‘lim va kreativ fikrlashning nazariy asoslari aniqlashtirildi va ularning o‘zaro integratsiyasi ilmiy jihatdan asoslandi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma (anketa), yarim strukturali suhbat, test sinovlari hamda tajriba-sinov ishlari qo‘llanildi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalarning o‘quv jarayonidagi faolligi va kreativ yondashuvi o‘rganildi. So‘rovnoma va suhbat metodlari yordamida talabalarning media ta‘limga bo‘lgan munosabati, motivatsiyasi va o‘z-o‘zini baholash darajasi aniqlashtirildi. Test sinovlari esa kreativ fikrlash ko‘rsatkichlarini aniqlashda muhim vosita sifatida xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari eksperimental va nazorat guruhleri asosida tashkil etildi. Eksperimental guruhda media ta‘lim metodlariga asoslangan maxsus ishlab chiqilgan pedagogik model joriy etildi, nazorat guruhida esa an‘anaviy o‘qitish usullari qo‘llanildi. Tajriba jarayonida media vositalar — videomateriallar, interaktiv platformalar, raqamli loyihalar va kreativ topshiriqlardan keng foydalanildi.

Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirildi. Diagnostik bosqichda talabalarning kreativ fikrlash darajasi aniqlanib, boshlang‘ich ko‘rsatkichlar belgilandi. Shakllantiruvchi bosqichda media ta‘lim metodlari asosida ishlab chiqilgan mexanizmlar amaliyotga joriy etildi. Yakuniy bosqichda esa olingan natijalar tahlil qilinib, eksperimental va nazorat guruhleri o‘rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Talabalarning kreativ fikrlash darajasini baholashda originality (yangilik), flexibility (moslashuvchanlik), fluency (tezkorlik) va elaboration (g‘oyani rivojlantirish) kabi mezonlardan foydalanildi. Ushbu mezonlar kreativ fikrlashning asosiy komponentlarini kompleks baholash imkonini berdi.

Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Jumladan, foiz ko‘rsatkichlari, o‘rtacha qiymatlar hamda taqqoslash tahlillari orqali eksperimental natijalarning ishonchliligi va samaradorligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyliigi turli metodlarning kompleks qo'llanilishi, tajriba-sinov ishlarining bosqichma-bosqich tashkil etilishi hamda natijalarning statistik tahlil qilinishi orqali ta'minlandi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda media ta'lim metodlari orqali talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari pedagogik, psixologik va metodologik jihatdan kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida zamonaviy oliy ta'lim tizimida media ta'lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari keng ekanligi, ularning talaba shaxsining intellektual va ijodiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot jarayonida media ta'limning pedagogik kategoriya sifatidagi mohiyati aniqlanib, uning ta'lim jarayonida axborot uzatish vositasidan ko'ra ko'proq — shaxsning kreativ tafakkurini shakllantiruvchi, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi hamda mustaqil o'quv faoliyatini faollashtiruvchi tizimli didaktik vosita ekanligi ko'rsatib berildi. Shu nuqtayi nazardan media ta'lim zamonaviy pedagogikaning muhim innovatsion yo'nalishlaridan biri sifatida talqin qilindi.

Nazariy tahlillar asosida kreativ fikrlash tushunchasining mohiyati ochib berilib, uning asosiy komponentlari — originality (yangilik yaratish qobiliyati), flexibility (fikrlash moslashuvchanligi), fluency (tezkor g'oya ishlab chiqish), elaboration (g'oyani chuqurlashtirish va rivojlantirish) — ilmiy asosda tavsiflandi. Ushbu komponentlarning rivojlanishi media ta'lim muhitida sezilarli darajada tezlashishi empirik natijalar orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodologik yondashuvlar tizimli, kompetensiyaviy, konstruktivistik va faoliyatga yo'naltirilgan paradigmalar integratsiyasiga asoslandi. Ushbu integrativ yondashuv talabalarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning ijodiy faoliyatini ham faollashtirishga xizmat qildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Buckingham, D. (2003). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Polity Press.
2. Buckingham, D. (2015). *The Media Education Manifesto*. Polity Press.
3. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. McGraw-Hill.
4. Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking*. Scholastic Testing Service.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
6. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. International Universities Press.
7. Bruner, J. (1961). *The Act of Discovery*. Harvard Educational Review.
8. McLuhan, M. (1964). *Understanding Media: The Extensions of Man*. McGraw-Hill.
9. UNESCO. (2011). *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers*. UNESCO Publishing.
10. Raximova, X. K. (2025). Methods for developing youth thinking in the context of media education. *International Congress on Modern Sciences-IV: Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education*, Chirchiq, Uzbekistan.
11. Raximova, X. K. (2025). A creative approach to pedagogical activity for enhancing the quality of education in the media environment. *International Congress on Modern Sciences-IV*, Chirchiq, Uzbekistan.

12. Raximova, X. K. (2025). Opportunities for improving education quality based on media education technology. *International Congress on Modern Sciences-IV*, Chirchiq, Uzbekistan.
13. Raximova, X. K. (2025). Teaching students creative thinking through media educational methods. *International Congress on Modern Sciences-IV*, Chirchiq, Uzbekistan.
14. Raximova, X. K. (2025). Media ta'lim metodlari orqali talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish mexanizmlarining nazariy asoslari. *Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(2). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14845113>
15. Raximova, X. K. (2025). Mechanisms for teaching students creative thinking through media education methods. *Journal of Teaching Theory and Practice*, 1(6). <https://brightmindpublishing.com/index.php/EI/article/view/1046/1072>
16. Raximova, X. K. (2026). Media ta'lim orqali oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy innovatsion tadqiqotlar ilmiy-metodik jurnal*, 3(2). <https://publishscience.uz/index.php/sirsh/article/view/397>
17. Raximova, X. K. (2026). Oliy ta'limda media ta'limning zamonaviy yondashuvlari va kreativ fikrlashni shakllantirish mexanizmlari. *Kasb-hunar ta'limi ilmiy-uslubiy jurnal*, 1-son.
18. Raximova, X. K. (2026). Organization of media education in higher education and mechanisms for developing students' creative thinking through media methods. *International Journal of Pedagogics*, 6(2). <https://doi.org/10.37547/ijp/Volume06Issue02-19>
19. Raximova, X. K. (2026). Media education as a factor in developing creative thinking among students. *Current Research Journal of Pedagogics*, 7(2). <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-07-02-28>